



SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TA'LIM-TARBIYA BORASIDAGI QARASHLARI

Karatayeva L.U.

CHDPU Psixologiya kafedrasining o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: ta'lim, tarbiya, odob, barkamol inson, insonparvarlik, ma'naviy fazilat, umuminsoniy qadriyatlar, milliy qadriyat, milliy tafakkur.

Ключевые слова: образование, образование, порядочность, идеальный человек. духовная достоинство, общечеловеческие ценности, национальная ценность, национальное мышление.

Key words: education, education, decency, perfect person, humanitarianism, spiritual dignity, universal human values, national value, national thinking.

Резюме:

Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya borasidagi qarashlari to'g'risida kiskacha bayon etilgan.

Резюме:

Кратко изложены взгляды восточных мыслителей на образование.

Summary:

The views of Eastern thinkers on education are briefly described.

O'zbek xalqi o'zining uzoq tarixi davomida yaratilgan ta'lim-tarbiyaga oid boy merosga ega. Bundan tashqar, avlodlarga insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, iymon-e'tiqod, mehr-oqibat kabi umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishning o'ziga xos tajribasini to'plagan. Bizga ma'lumki, ma'naviy-axloqiy fazilatlar hech qachon o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, balki ularning kelib chiqishining haqiqiy manbai, ularni keltirib chiqargan sabablar va harakatga keltiradigan kuchlar mavjuddir. Zero, har qanday axloqiy qoidalar muayyan tarixiy zaruriyat natijasida vujudga keladi va muayyan qonuniyat asosida rivojlanib boradi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari bu tajribaning shakllanishiga ulkan ta'sir ko'rsatgan.

Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyani rivojlantirish borasidagi qarashlarining dolzarbligi. Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q va hozirgi zamonda ham qimmatli



hikmat va yo‘l-yo‘riq manbai bo‘lib qolmoqda. Ularning kontseptsiyalari va falsafiy e‘tiqodlari zamonaviy ta‘lim tizimlari va amaliyotlarini modellashtirishga muhim hissa qo‘shadi. Sharq mutafakkirlari qarashlarida ham bilimning universalligi va uni nafaqat tarbiyaviy vazifalarda, balki kundalik hayotda ham qo‘llash ta‘kidlangan. Ushbu kontseptsiya zamonaviy ta‘limda dolzarb bo‘lib, bu erda nafaqat akademik ko‘nikmalarni, balki zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli moslashish uchun amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantirish muhimdir.

Shunday qilib, Sharq mutafakkirlarining ta‘lim-tarbiya haqidagi qarashlari barkamol va taraqqiyparvar jamiyatni shakllantirishda qadriyatlar, bilim va ma‘naviy kamolotning ahamiyatini eslatib, zamonaviy ta‘lim amaliyotiga ilhom va ta‘sir ko‘rsatishda davom etmoqda.

Zamonaviy ta‘limda «Subyekt va subyekt», «Shaxs va shaxslar» tamoyilida o‘qituvchi ijtimoiy maqomining mustahkamlanishida qator ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirildi. O‘zbekistonda ilm-fan rivoji aholi turmush farovonligini ta‘minlash omillaridan biridir. Chunki kelajak avlod tarbiyasi, avvalo, o‘quvchilarning ilmiy savodxonlik darajasiga bog‘liq bo‘lib, bu o‘qituvchilar zimmasiga ulkan vazifalar yuklaydi. Ammo mamlakatimizda ilm-fan va ta‘lim sohasidagi muammolar, unga nisbatan bee‘tiborlik, korrupsion xatti-harakatlar natijasida «katta jarlik» yuzaga keldi. O‘tgan davr davomida muammolarning izchil yechimi berilmagan bo‘lsa-da, bugungi kunda uzluksiz ta‘limning har bir bo‘g‘inidagi o‘qituvchilarning kasbiy axloqiy qiyofasi va qadriyatlari takomillashdi. «Ustoz-shogird» munosabatlari asosida an‘anaviy va zamonaviy ta‘lim qadriyatlarining hayotga joriy etilishi natijasida mamlakatimizda ta‘lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasiga innovatsion yondashuv barqarorlashdi.

Bu kabi talablar zamonaviy qonunchiligimizda ham o‘z aksini topgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida “Har kim ta‘lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta‘lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta‘lim tashkilotlari rivojlanishini ta‘minlaydi. Davlat maktabgacha ta‘lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiy o‘rta boshlang‘ich professional ta‘lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o‘rta ta‘lim majburiydir. Maktabgacha ta‘lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta‘lim davlat nazoratidadir. Ta‘lim tashkilotlarida alohida ta‘lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta‘lim va tarbiya ta‘minlanadi.” deb belgilangan.

Sharq mutafakkirlarining ta‘lim-tarbiya, oila va oilaviy tarbiya haqidagi qarashlari islom mafkurasi va uning qobig‘ida shakllangan. Sharq mutafakkirlari ijodida aks etgan umuminsoniy g‘oyalar islomiy ma‘naviyat bilan hamohangdir.

Sharq mutafakkirlari o'z ilmiy meroslarida oila va oilada farzand tarbiyasi masalalariga katta e'tibor berganlar. Muhammad ibn Muso al Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Muhammad Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy kabi mutafakkirlarning qator asarlarida bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari o'rtiga qo'yilgan va ularni hal etish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Bu borada Abu Nasr Forobiyning qarashlari, ayniqsa, muhim. Chunki Forobiy «Muallimi-soniy» («Ikkinchi muallim») nomiga sazovor bo'lib, yoshlarning ta'lim-tarbiyasi haqida «Agar yoshlar kasb-hunar egallashga moyil bo'lsalar, qiziqsalar, ushbu qiziqish ularni butunlay shunga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig'i bo'ladilar, uning sirlarini mukammal o'zlashtiradilar», deydi. Alloma yoshlarni kasb-hunar egallashga o'rgatishda ikki xil usuldan foydalanish lozimligini taklif etadi:

1) Ilhomlantirish usuli- samarali usul bo'lsa,

2) Majburlash usuli- qaysar, dangasalarga nisbatan ishlatiladi. Chunki bunday yoshlar o'z hohishistaklari bilan so'z va g'ayratga kirmaydilar, intilmaydilar va ularga nisbatan majburlash usuli qo'llanilishi kerak.

Forobiy ham tabiatga mansublik tamoyiliga amal qiladi. Uning fikricha, tabiatning oliy mahsuli bo'lgan insongina tabiatning mohiyatini bilish va haqiqatga intilish qobiliyatiga ega. Bular o'zicha vujudga kelmasdan o'z-o'zini tarbiyalash va ta'lim olish orqali insonning mohiyatiga aylanishi kerak. U bir qancha ta'lim-tarbiya uslublarini ko'rsatib beradi va asoslaydi. Quyidagilar u ko'rsatgan bilish uslublari kompleksi bilan bog'langan:

- ishontirish,
- idrok qilish;
- o'rganish;
- tadqiq qilish;
- bilish;
- o'rgatish.

Albatta, «Ikkinchi muallim» nomiga sazovor bo'lgan buyuk ustoz, o'qituvchi va o'quvchi munosabatlariga alohida e'tibor qaratadi. O'qituvchi juda qattiqqo'l yoki juda yumshoq ko'ngil bo'lmasligi kerak. Qattiqqo'llik o'quvchilarni unga qarshi qaratadi, ortiqcha oqko'ngillilik, yumshoqlik ustoz shaxsini, uning fanini hurmat qilmaslikka olib keladi. O'qituvchi va o'quvchi munosabatlari hamisha hurmat va ishonchga asoslanishi lozim.[1]

Qomusiy olim Abu Ali ibn Sinoning ta'lim va tarbiya haqidagi qarashlari, avvalo, inson aqli to'g'risidagi ta'limot bilan bog'liq. U maktabda bolalarni jamoa bo'lib o'rgatishning ahamiyatini quyidagicha ko'rsatib beradi:



1) Agar bolalar birgalikda ta'lim olsalar, ularda zerikish bo'lmaydi. Ularning fanni o'rganishga bo'lgan qiziqishi kuchayadi. Ular bir-birlaridan qolmaslik uchun musobaqalashadi;

2) Suhbatlarda ular bir-birlariga kitoblarda o'qigan yoki kattalardan eshitgan qiziqarli hikoyalarni aytib beradilar. Bu ularning nutqini o'stiradi va xotirasini mustahkamlaydi;

3) Bolalar bir-birlarini hurmat qilishni ham bir joyga to'planishganda yaxshi o'rganishadi. Faqat musobaqalashish emas, o'rtoqlariga o'quv materiallarini o'zlashtirishga ham ko'maklashadilar, bir-birlaridan yaxshi odatlarni o'rganadilar. Umuman olganda, Ibn Sinoning ta'lim dasturiga ko'ra, bolalar 14 yoshgacha maktabda Qur'oni Karimni, til, pand-nasihati, axloq, sport va hunarni o'rganishi lozim. Ibn Sino an'anaviy ta'limning gumanistik mohiyatini inson axloqiy-estetik tarbiyasini aqliy tafakkur rivoji bilan uzviy aloqadorlikda, deb bildi. Yuzlab shogirdlarni tarbiyalab voyaga yetkazgan mohir pedagog, ustoz «Shayx ur-raisi» pedagogik mahorat, pedagogik faoliyatda ularni qanday aks etishi haqida va har bir pedagog amal qilishi kerak bo'lgan o'ziga xos tavsiyalarni bergan.

Bular: - bolalar bilan muloqotda bosiq va jiddiy bo'lish;

- o'quv material o'zlashtirilishini kuzatish;
- dars berayotganda asosiy bilimlarni ikkinchi darajalilardan ajratish;
- o'qitishning turli metod va usullaridan foydalanish;
- o'quvchining qobiliyatini bilish, uning xotirasi va shaxsiy sifatlariga tayanish;
- o'quvchiga topshiriqlarni uning aqliy qobiliyatlarini hisobga olgan holda berish;
- o'qituvchining har bir so'zi o'quvchining fikrini uyg'otishi zarur.

Forobiy pedagogik qarashlarini, ta'lim-tarbiya haqidagi ta'limotini o'rganishda inson xislatlari to'g'risidagi falsafiy fikrlari nihoyat muhim ahamiyat kasb etadi. Forobiy o'zining falsafiy qarashlarida odamning tuzilishini, ruhiyatini, madaniy va ma'naviy olamini o'rganishga ahamiyat beradi. Uning ta'limotida, inson barcha boshqa jismlarda bo'lmagan qobiliyat va kuchga, ruhiy quvvatga, aql va so'zlash qobiliyatiga egaligi bu kuch uni tabiatdagi boshqa jismlardan ajratib turishi va uning ustidan hokim bo'lish imkoniyatini berganligi namoyon bo'ladi.

Forobiy bu dunyoqarashida narsa-hodisalarni bilish, inson aqlini bilim bilan boyitish uni ilmiy, ma'rifatli qilish uchun xizmat qiluvchi ruhiy jarayonlarga alohida e'tibor beradi. U o'zining "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Fanlarning tasnifi", "Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to'g'risida",

”Ilmlar va san’atlar fazilati” kabi koplab risolalarida insonning ma’naviy rivojlanishi ilm-ma’rifatga bog’liqligini ta’kidlaydi.

Abu Rayhon Beruniy bilim umuminsoniy qadriyatlarni o’rganishning kaliti ekanligini alohida ta’kidlaydi. Ilm-ma’rifatli odam jamiyat taqdiri, insonlar taqdiri uchun kurashuvchan, barcha yomonliklardan uzoqdir. ”Ilmning foydasi ochko’zlik bilan oltin-kumush to’plash uchun bo’lmay, balki u orqali inson uchun zarur narsalarga ega bo’lishdir”³

Umuman, Abu Rayhon Beruniy ilm-fanning buyuk homiysi va muxlisi sifatida mamlakatning obodonchiligi ilm-fanning gullashida, odamning baxti esa uning bilim va ma’rifatida deb bildi. Yaratgan asarlarida u ta’lim-tarbiyaga doir she’r va hikmatlardan misollar keltirib, ular orqali har bir inson o’z qalbining farmoyishiga ko’ra xayr-ezgulikka intilishi, sun’iy obro’, shuhrat qozonish uchun muruvvat va sharofat ko’rsatmasligi kerakligini ta’kidlaydi.

Yusuf Xos Hojibning ”Qutadg’u bilig” asarida aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy va nafosat tarbiyasiga doir fikrlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. U insonni ulug’laydi. Uning fikricha, insonning ulug’ligi aql-idroki, so’zlash qobiliyati, bilimi, uquvi, hunarga egaligidadir. Adib o’quv va bilimni farqlaydi: o’quv tug’ma ravishda inson ruhiyatida mavjuddir, bilim esa o’qish-o’rganish va mehnat tufayli egallanadi. Agar ularning har ikkisi o’zaro birlashsa, insonning qadri ortadi:

*Zakovat qayerda bo’lsa, ulug’lik bo’ladi,
Bilim kimda bo’lsa, buyuklik bo’ladi.
Zakovatli uqadi, bilimli biladi,
Bilimli, zakovatli tilakka yetadi.*

Yusuf Xos Hojib ta’lim va tarbiyaning uzviy bog’liq holda bo’lishini tavsiya etadi, o’g’il bolalarning bir necha san’at turlarini va hunarlarni tugal o’rganmog’i lozimligini ta’kidlaydi. Bu, ularning kelajak hayotlari, jamiyat rivoji uchun zarurligini aytadi.

Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi yosh avlodni hayotga tayyorlash, ular tarbiyasini samarali amalga oshirish ehtiyojidan kelib chiqadi. Bu ehtiyoj tarbiya borasida orttirilgan tajribalar to’plangandan keyin o’sha tajribalarni umumlashtirish, yoshlar tarbiyasi haqida qonun-qoidalarni ishlab chiqish zaruratini taqozo etadi.

Avvalo pedagogikaning nazariy kurtaklari falsafa negizida paydo bo’ladi. Ta’lim-tarbiya masalalari hamisha mutafakkir, yozuvchi, olimlar xayolini band qilib kelgan. Ular o’zlarini bola tarbiyasi, ularni barkamol inson qilib tarbiyalash haqidagi yorqin mulohazalari bilan pedagogik fikrlar ravnaqiga ulush qo’shganlar. Masalan: Nizomulmulkning «Siyosatnoma», Nosir Xisravning



«Saodatnoma», Ahmad Yugnakiyning «Hibatul-Haqoyiq», Alisher Navoiyning «Mahbub - ul qulub», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarlari bevosita odob, axloqqa daxldordir.

Bu asarlarda insonparvarlik, halol mehnat, do'stlik, chin muhabbat, sadoqat kabi yuksak axloqiy fazilatlar o'z aksini topgan. Yosh avlodlarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamma davrlarda millatning ilg'or kishilari diqqat markazida bo'lib kelgan.

Kaykovusning «Qobusnoma», IV asrda yashab o'tgan hind faylasufi Beydaboning «Kalila va Dimna» asarlari, «Ramayana», «Mahobxorat» dostonlari, Sa'diyning «Guliston» va «Bo'ston», Jomiyning «Bahoriston», Ahmad Donishning «O'g'illarga nasihat», bundan tashqari Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, «Chor darvesh», «Ming bir kecha» kitoblari ham qimmatbaqo ma'naviy-madaniy meros bo'lib, Sharqu g'arb xalqlari ming yillar mobaynida bulardan bahramand bo'lganlar va komillik tog'risida uning qirralarini yoritib berganlar.

O'rta asrda Yaqin va O'rta Sharqda diniy o'quv muassasalari - madrasalar ta'lim va fan markazlari bo'lgan. O'zbekistonlik, Rossiyalik va chet el sharqshunos tadqiqotchilari tomonidan madrasa turidagi o'quv muassasalari aynan Markaziy Osiyoda yuzaga kelgani va shu yerdan boshqa mamlakatlarga tarqalgani isbotlangan.

Somoniy davrida (X asr) faqat Samarqandning o'zida 20 ga yaqin madrasalar mavjud bo'lgan. Abu Ali ibn Sino (980-1037) o'zining «Donishnoma» («Bilimlar kitobi») nomli asarida mazkur madrasalarda faqat musulmonchilikka oid bilimlar berilibgina qolmay, balki dunyoviy ilmlar ham o'rganilganligi, ilmiy tadqiqotlar olib borilganligi, ularning negizida ilmiy maktablarning yuzaga kelganligi qayd etib o'tiladi. O'z davrida madrasalarda o'qitilishi yo'lga qo'yilgan fanlarni Abu Ali Ibn Sino quyidagi tizimlar bo'yicha ajratadi: odob (xulq etikasi), astronomiya, tibbiyotshunoslik, til va uning grammatikasi, fikx (musulmon qonunchiligi). Alloma tomonidan taklif etilgan tarbiya turlar esa quyidagilardan iborat: 1) aqliy tarbiya; 2) jismoniy sog'lomlashtirish; 3) estetik tarbiya; 4) ma'naviy tarbiya; 5) hunarga o'rgatish. Abu Ali Ibn Sino tomonidan taklif etilgan tarbiya turlari Markaziy Osiyoda Uyg'onish davridagi ta'limning insonparvarlik va shaxsning barkamol rivojlanishi borasidagi g'oyalariga asoslangan edi, deyishiga imkon beradi.

Sharqdagi Uyg'onish davri Sharq mutafakkirlari - Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniylar o'zlarining ta'limiy qarashlarida birinchi o'ringa inson shaxsini qo'yadilar hamda bolalarni har tomonlama, jismoniy va estetik kamolotga erishishlari,

shuningdek, tillarni bilishlarini zarur deb hisoblaydilar. Aqliy ta'limni tashkil etuvchi fanlar sirasiga matematika, astronomiya, mexanika va tabiatshunoslik kabi tabiiy-ilmii fanlarni kiritadilar.

Tarbiyani keng ma'noda tushungan Abdulla Avloniy uni birgina axloq tarbiyasi bilan chegaralab qo'ymaydi. U, avvalo, bolaning sog'lig'i haqida g'amxo'rlik qilish lozimligiga e'tibor qaratadi. Avloniyning fikricha, sog'lom fikr, yaxshi axloq, ilm ma'rifatga ega bo'lish uchun, avvalo, tan salomatligi zarur. Avloniy fikricha, «badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qumoq, o'qutmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur». Abdulla Avloniy bolaning badantarbiyasi, salomatligi masalasida ota-onalarga murojaat qilsa, uning fikr tarbiyasi borasida asosiy mas'uliyat muallimlar zimmasida ekaniga urg'u beradi. Bolalarda fikrlash qobiliyatini o'stirish, dunyoqarashini shakllantirish muallimlarning «diqqatlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan muqaddas vazifadur... Negaki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog'liqdur», – deydi alloma. Shu bilan birga, mutafakkir Abdulla Avloniy: “Ta’lim va tarbiya uzviy bog’liq jarayonlardur, dars ila tarbiya orasida biroq farq bor bo’lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kapidur”, — deya ta’kidlaydi. Avloniy insonga yaxshilik va ezgulik faqat ilm egallash orqali singadi, degan qat’iy fikrni bildiradi. Ilmli, ezgu g’oya ruhida tarbiyalangan kishidagina Vatan tuyg’usi shakllanadi, ona yurti va ona tiliga muhabbat uyg’onadi, sadoqati qaror topadi. Bu fazilatlarisiz komil insonni tasavvur etib bo’lmaydi, degan fikrlarni ilgari suradi. Yurt ravnaqi, avvalo, uning farzandlariga, ularning ma’naviy va jismoniy kamolotiga bog’liqdir. Shu bois Abdulla Avloniy yoshlarni ilm, foydali hunar egallashga, kitob mutolaasiga undaydi. Shuningdek, Avloniy ilmsizni jaholat bilan tenglashtirib, shunday fikrlarni bildiradi: “Jaholat deb o’qimagan, bilimsiz, hech narsaga tushunmaydurgan nodonlikni aytilur”, – deydi. “Ilm sahroda – do’st, hayot yo’llarida – tayanch. Yolg’izlik damlarida – yo’ldosh, baxtiyor daqiqalarda – rahbar, qayg’uli onlarda – madadkor, odamlar orasida – zebu ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda – qurol- dir”. Mutafakkir: “Go’zallik yuzda ermas, ey birodar, so’zi shirin kishi har kimga yoqar”, “So’zing oz bo’lsinu, ma’noli bo’lsun, eshitganlar qulog’i durga to’lsun,” — deb insonlarni xushsuxan bo’lishga chorlaydiki, toki so’zlarimiz farzandlarimiz uchun namuna bo’lsin.

Ta’lim-tarbiya o’z navbatida oiladan boshlanar ekan, biz o’z farzandlarimizni baxti-sodatini, kamolini, iqbolini, buyuk inson bo’lib etishganligini va hayot abadiyligi avlodlar davomiyligini ta’minlaydigan ma’naviy qo’rg’oni



bo'lmish o'z oilamizning mustahkamligini ko'rishni istar ekanmiz, demak oilada tarbiyalanuvchilarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalashda ta'lim-tarbiyaning barcha turlariga e'tiborni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-bobolarimizdan qolgan boy ma'naviy merosning yosh avlodni har tomonlama yuksalishi tizimidagi o'rni va roli o'ziga xos xususiyatga va ko'rinishlarga ega. "Darhaqiqat, ajdodlar tomonidan yaratilgan ta'limiy-tarbiyaviy qadriyatlarni o'rganishda ta'lim tizimi imkoniyatlarga alohida e'tibor qaratish lozim. Sharq mutafakkirlarining asarlarini o'rganish, tahlil qilish, ularning ijodi va ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etish muhim amaliy ahamiyatga ega. Ular o'z asarlarida shaxs ma'naviyati, insonda odob-axloqning yuksak namunalarini tarkib toptirish, oila, nikoh, farzand tarbiyasi, halol mehnat bilan kun kechirish, atrof-muhitga nisbatan oqilona munosabatda bo'lishga oid qarashlarni bayon qilganlar.

Shunday qilib, inson va uni tarbiyalash masalalari Sharq mutafakkirlari va allomalari o'z asarlarida insonning bilim olishi, hunar egallashi, undagi yuksak ma'naviy-ahloqiy sifatlarni ulug'laydilar va shunday fazilatlarga ega bo'lishga barchani chorlaydilar. Ma'naviy yuksak, zamonaviy ilm-fanni egallagan, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosga sohib chiqqan avlodni hech qanday tashqi kuch, g'oya yoki mafkura aslo o'z ta'siriga tushira olmaydi. Bunday avlodni voyaga etkazgan xalqning istiqboli porloq, kelajagi buyukdir.

Shunday qilib, Sharq mutafakkirlarining asarlarini o'rganish, tahlil qilish, ularning ijodi va ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etish muhim amaliy ahamiyatga ega. Ular o'z asarlarida shaxs ma'naviyati, insonda odob-axloqning yuksak namunalarini tarkib toptirish, oila, nikoh, farzand tarbiyasi, halol mehnat bilan kun kechirish, atrof-muhitga nisbatan oqilona munosabatda bo'lishga oid qarashlarni bayon qilganlar.

Shunday qilib, inson va uni tarbiyalash masalalari Sharq mutafakkirlari va allomalari o'z asarlarida insonning bilim olishi, hunar egallashi, undagi yuksak ma'naviy-ahloqiy sifatlarni ulug'laydilar va shunday fazilatlarga ega bo'lishga barchani chorlaydilar.

Insoniyat tarixiy tajribasi asosida Sharq mutafakkirlari tomonidan zamonaviy ta'lim tizimi, uning asosiy subyektlari roli va vazifalari tizimlashtirilgan. Yuqoridagi misollarda ham yurtimizda dastlabki uyg'onish davrida ham ta'lim-tarbiyaga qanday ahamiyat berilganini ko'rishimiz mumkin. Jamiyatda ta'lim-tarbiya to'g'ri yo'lga qo'yilmas ekan ijtimoiy soha oqsayveradi. Ayniqsa hozirgi globallashtirish va texnika zamonida yoshlarni oqni qoradan ajratib olishlari uchun ham ta'lim va tarbiyaning o'rni juda muhim va bunga davlat ham insonlar ham



katta e'tibor qaratishlari zarur. Shuning uchun ham yurtimizda keying yillarda ta'lim va tarbiyaga katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas, buning uchun avvalo o'qituvchining roli ko'tarilaydi, pedagoglar jamiyatda oldingi o'ringa olib chiqilaydi. Chunki ilm-fan taraqqiyoti jamiyat rivojlanishining eng asosiy bo'g'inidir.

Takliflarimiz quyidagilardan iborat; ta'limda natijaga erishish uchun avvalo erkinlik ta'minlanishi kerak. Bu borada ishlar olib borilib, yangilangan konstitutsiyamizda ham o'qituvchining maqomi alohida belgilanib qo'yildi. Ta'limda yuqori tajribaga ega mamlakatlar tajribasi o'rganilib hayotga tadbiiq etilishi kerak. Tarbiya jaroyida ham jamiyatning har bir sinfiy bo'g'inini o'z vazifasini bajarishi lozim. Bizdagi yana bir muammo har soha o'z sohasida erkin bo'lishi, ya'ni tashqi kuchlar ulargga aralashmasligi kerak. Shundagina ko'zlangan maqsad va natijaga erishiladi.

Adabiyotlar:

1. Abu Nasr Forobiy. "Fozil odamlar shahri".-T: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.-183 b.
2. Abu Homid al-G'azzoliy. Ihyou ulumiddin. - Toshkent: Toshkent Islom univyersityeti, 2014. - 511b.
3. Axunova G. "O'zbekistonda ta'lim xizmatlari marketing muammolari"-T: "Iqtisod-moliya", 2005. – 244 b.
4. Abu Hamid G'azzoliy. Mukoshafatul qulub (Qalblar kashfiyoti). –T: Movarounnahr, 2014. - 480 b.
5. Buyuk yurt allomalari.-T: O'zbekiston,2016. – 324b.
6. Muhammadjonov A. "Temur va temuriylar saltanati".-T: "Qomuslar bosh tahririyati". 1996. -94 b.
7. Safarov, M.K. (2023). Abu bakr ar-Roziyning "Tibbi Ruhoniy (Ruh tibbiyoti) asarida g'azabni va insonning o'z kamchiliklarini bartaraf qilish haqida mulohazalar. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari, 2(3), 214-219.
8. Safarov, M.K. (2023). Ar-Roziyning falsafiy nazariyalari va ular haqida mulohazalar." Falsafa va huquq", 1,183-186.
9. Shodmonov A."Zamonaviy ta'lim va mas'uliyat" Xalq so'zi.2015. <https://xs.uz/uz>.